

Tashdiqlayman

O'zFA Sa'natshunoslik ITI

direktor o'rinxbosari

A.Ismoilov



**O'zFA Sa'natshunoslik ITIga tarixiy eksponatlarni yaratish uchun
uchun eng yaxshi takliflarni**

TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARI

Toshkent – 2022 y.

MUNDARIJA

- I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO'LLANMA
- II. TEXNIK TOPSHIRIQ
- III. TANLASH HUJJATLARINING NARXGA OID QISMI
- IV. SHARTNOMA LOYIHASI

I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO'LLANMA

1. Eng yaxshi takliflarni tanlash (Tanlash) predmeti

Tarixiy eksponantlarni (matn davomida “Tovarlar”) xarid qilish.

Davlat buyurtmachisi – O'zFA Sa'natshunoslik ITI (matn davomida Buyurtmachi deb yuritiladi).

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlariga ko'ra g'oliblarni tanlash, ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'londan qilingan mezonlar asosida Tanlash xarid komissiyasi (matn davomida Komissiya deb yuritiladi) tomonidan aniqlanadi. Komissiya tarkibi Buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi.

2. Tanlash doirasida taqdim etiladigan har qanday hujjatlarning (ma'lumotlarning) maxfiyligi.

2.1. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash to'g'risidagi ma'lumotlar, tanlash o'tkazish vaqtida ham, u tugagandan so'ng ham, baholash tartibotiga rasmiy ravishda aloqador bo'lmagan shaxslarga xabar qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun Komissiyasi a'zolari, ishchi guruhrar va/yoki mutaxassislar guruhi javobgar bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunining 15-moddasi).

3. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan tushuntirish berish

3.1. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari (matn davomi Tanlash hujjatlari) yuzasidan so'rov yuborish uchun ishtirokchilar davlat buyurtmachisiga yozma ravishda quyidagi manzilga murojaat yuborishi mumkin:

O'zFA Sa'natshunoslik ITI i.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Mustaqillik maydoni 2a-uy.

Tel: (+99890) 937 3369.

Mas'ullar: Nasretdinov F.

3.2. Tanlash hujjatlari yuzasidan tushuntirishlar berish bo'yicha so'rov, tanlash ishtirokchisi tomonidan tanlash takliflarini berish muddati tugashidan kamida ikki kun oldin yozma ravishda so'ralishi mumkin. Davlat buyurtmachisi ko'rsatilgan so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tushuntirish javobini yuborishi shart.

4. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini tayyorlash va taqdim etish

4.1. Tanlash ishtirokchisi o'zining tanlash takliflarini tayyorlash va taqdim etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Buyurtmachi va Komissiya tanlash natijalaridan qat'iy nazar mazkur xarajatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflari unga bog'liq hujjatlar hamda ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasidagi barcha yozishmalar o'zbek yoki rus tillarida bo'lishi lozim.

4.3. Tanlash ishtirokchilarining takliflari Davlat buyurtmachisi tomonidan

2021 yil “_____” (maxsus axborot portalida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelguncha qabul qilinadi):

4.4. Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli. Ishtirokchining taklifiga tanlash predmeti hisoblangan barcha tovarlar kiritilishi lozim.

5. Tanlash taklifiga kiradigan hujjatlar

5.1. Tanlash takliflari (hujjatlar to'plami) maxsus axborot portalida taqdim etiladi

- malakaviy saralash hujjatlari
- texnik taklif
- narx taklifi

6. Malakaviy saralash hujjatlari

6.1. Malakaviy saralash hujjatlari ro‘yxati:

-tanlash ishtirokchisining umumiy ma’lumoti

-tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestridda mavjud emasligi haqida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo‘qligi to‘g‘risida kafolat xati (kafolat xati shakli 3-sonli ilovada keltirilgan);

-tegishli davlat ro‘yxatga olish organlari tomonidan berilgan ishtirokchi ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi;

-tanlash ishtirokchisining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to‘g‘risida soliq organidan olingan ma’lumotnoma;

-ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza.

Agar tashkilot (korxona) rahbari tanlashda ishtirok eta olmasa, quyidagi vakolatlarga ega ishonchli vakil nomiga rasmiylashtirilgan ishonchnoma (ishonchnoma shakli 4-sonli ilovada keltirilgan) taqdim etish kerak:

a) tanlash taklifini (hujjatlarini) taqdim etish;

b) buyurtmachi va ishchi organ bilan muzokaralar olib borish;

v) Tanlash xarid komissiyasi majlislarida qatnashish;

g) tanlash taklifining texnik va narx qismiga, shuningdek boshqa masalalarga aniqlik kiritish.

6.2. Zarur hollarda komissiya tanlash ishtirokchilaridan taqdim qilingan takliflar yuzasidan qo‘srimcha ma’lumotlar (shartnomalar nusxalari, oldingi yillar uchun moliyaviy hisobotlarning asl nusxalari va boshqa zarur ma’lumotlar) taqdim qilinishini qo‘srimcha ravishda talab qilishi mumkin.

7. Texnik taklifni rasmiylashtirish

7.1. Ishtirokchi texnik taklif jadvalining nusxasini taqdim etishi lozim.

7.2. Texnik taklif tanlash hujjatining texnik topshiriq qismida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Belgilangan talablarga nisbatan ustun takliflar bilan xizmatlarni yetkazib berish bo‘yicha takliflarga yo‘l qo‘yiladi. Bunda ustun takliflarni muvofiqligi va takliflarni qabul qilish bo‘yicha qarorlar Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

7.3. II-bo‘lim, texnik topshiriqda keltirilgan normalar va texnik topshiriqlarga mos kelмаган takliflar diskvalifikasiya qilinadi.

7.4. Tanlash ishtirokchisi tanlash predmeti bo‘lgan Tovarlardan texnik baholash uchun bir birlikda namuna taqdim etishi lozim. Tovar namunalari quyidagi manzilga taqdim etiladi: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Mustaqillik maydoni 2a-uy.

Tel: (+99890) 937 3369.

Mas’ullar: Nasretdinov F.

Namuna taqdim etmagan tanlash ishtirokchilari tanlashdan chetlashtiriladi.

7.5. Tanlash ishtirokchisi texnik taklifida tovar bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin.

8. Narx taklifini rasmiylashtirish

8.1. Ishtirokchi narx taklifi jadvalining nusxasini taqdim etishi lozim.

8.2. Har qanday bosqichda narxlarni ko‘tarilish tomonga o‘zgarishini nazarda tutuvchi tanlash taklifi tanlash talablariga javob bermaydigan deb hisoblanadi va komissiya tomonidan keyingi ko‘rib chiqish rad etiladi.

9. Tanlash taklifining amal qilish muddati

9.1. Tanlash ishtirokchisining takliflari, tanlash takliflarini qabul qilish tugaydigan kun sifatida belgilangan sanadan boshlab kamida bir oy mobaynida kuchda qolishi lozim.

9.2. Ayrim hollarda komissiya tanlash ishtirokchisini taklifini amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risida iltimos qilishi mumkin. Bunday iltimos va unga javob xat ko‘rinishida rasmiylashtiradi.

10. Tanlash takliflarini baholash tartibi va g‘oliblarni aniqlash

10.1. Komissiya malakaviy saralashdan o‘tgan ishtirokchilarning texnik va narx takliflarini baholashdan o‘tkazadi.

10.2. Ishtirokchining texnik taklifi texnik topshiriqda ko‘rsatilgan talablarga «muvofig» yoki «muvofig emas»ligi baholanadi.

10.3. Texnik baholash natijalariga ko‘ra texnik taklifi «Muvofiq emas» deb topilgan Ishtirokchi baholashning keyingi bosqichi – narxli baholashga qo‘yilmaydi.

10.4. Komissiya texnik taklifi «Muvofiq» deb baholangan ishtirokchilarning narx takliflarini ochadi va baholaydi.

10.5. Tanlash ishtirokchilarining narx takliflari e’lon qilingandan so‘ng Komissiya tanlash taklifining eng past narxlarida berilgan ballar uchun g‘olib va zahira ijrochini aniqlaydi.

10.6. Narx taklifini baholash mezoni: eng past narx – eng yuqori ball (100 ball), eng baland narx – eng past ball. Narxlarning eng past narxga foiz sifatida o‘sishi, eng past narx punktlari uchun bog‘langanlar sonining bog‘liq ravishda pasayishi sifatida baholanadi.

10.7. Takliflarni baholash yakunlari bo‘yicha taklifi eng ko‘p ball olgan (shartnomani bajarish bo‘yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan) ishtirokchi tanlash g‘olibi deb topiladi.

10.8. Agar tanlash taklifi Tanlash hujjatlарining barcha talablariga javob bersa, biroq narxlar Ojadvalida arifmetik xatolar bo‘lsa, Komissiya ushbu taklifni rad qilishi yoki ishtirokchi roziligiga ko‘ra ushbu xatolarni tuzatishga haqli.

Tanlash ishtirokchisi Komissiya tomonidan amalga oshirilgan tuzatishlarga rozi bo‘lmagan taqdirda ushbu taklif Tanlash hujjatlari talablariga javob bermaydigan taklif sifatida baholanadi va rad qilinadi. Tuzatishlar qabul qilinganda, tanlash ishtirokchisi tuzatishlarni qabul qilishga rozilik bergenligi haqidagi tanlash ishtirokchisi imzosi va muhri qo‘yilgan rasmiy xatni taqdim qiladi.

10.9. Har bir lot bo‘yicha tanlash g‘olibi to‘g‘risidagi rasmiy qaror Komissiya qarori bilan qabul qilinadi. Ushbu masala bo‘yicha qaror Komissiya a‘zolarining umumiy sonidan oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda Komissiya raisi ovozi hal qiluvchi bo‘lib hisoblanadi.

10.10. Tanlashda ishtirok etish uchun tanlash ishtirokchilarining huquqlarini boshqa yuridik shaxslarga berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

10.11. G‘oliblar va zaxira ijrochilar ro‘yxati komissiyaning bayonnomasi qarori bilan qabul qilinadi va rasmiylashtirilgandan so‘ng 2 ish kuniga davlat xardilarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun joylashtiriladi.

11. Shartnomani imzolash

11.1. Komissiyaning tanlash bo‘yicha qabul qilgan qarori bayonnomasi yuzasidan 2 ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar kelib tushmasa, ushbu qaror yakunlari bo‘yicha Komissiya kotibi tanlashning g‘olib bo‘lgan ishtirokchisiga uning taklifi qabul qilinganligi haqida xabar beradi va shartnoma tuzishni taklif etadi.

11.2. Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e’tirozlar Komissiya tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar kelib tushganda, komissiya e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

11.3. Buyurtmachi mazkur Tanlash hujjatlarining III-bo‘limiga muvofiq shakl bo‘yicha tanlash g‘oliblariga shartnoma proformasini yuboradi.

11.4. Shartnoma proformasi olingan paytdan e’tiboran 10 (o‘n) kun mobaynida tanlashning g‘olib bo‘lgan ishtirokchisi davlat buyurtmachisi bilan tegishli shartnomani imzolashi lozim.

G‘olib bilan tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab 3 ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

11.5. Tanlash g‘olibi tanlash shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o‘tadi. Bunda zaxira ijrochisi tanlash g‘olib taklif qilgan narxda shartnoma tuzishi mumkin yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

11.6. Miqdoriy, sifat va texnik parametrlari bo‘yicha shartnomani bajarmagan tanlash g‘olibi qonun hujjatlari va/yoki shartnomada nazarda utilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

12. Tanlashni o‘tkazilmagan deb e’lon qilish

12.1. Tanlash quyidagi holatlarda Komissiya tomonidan tanlash o‘tkazilmagan deb e’lon qilinishi mumkin:

tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan bo‘lsa;
takliflarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha Komissiya barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa;
faqatgina bitta taklif tanlash hujjatlari talablariga muvofiq kelsa tanlash o‘tkazilmagan deb
topiladi.

Tanlash talablariga doir biror o‘zgartirish kiritish zarurati paydo bo‘lganda Komissiya asoslarni
keltirgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

II. TANLASH HUJJATLARINING TEXNIK QISMI

III. TEXNIK TOPSHIRIQ

Yetkazib beruvchiga (Ishtirokchiga) qo‘yilgan talablar

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid qoyatosh suratlarinig fragmentlari, bronza davriga oid sirlanmagan sopol vaza va kuboklar, Kushon davriga oid barelef rangli loy-ganch haykallar, anob berilgan terrakota haykalchalar, losheniyali eynaxoya ko‘za hamda ilk o‘rta asrlarga oid shtampovkali terrakota flyaga-mustaxara, islimiyl va handasaviy ornamentlar bilan bezatilgan sirkori oshxona idishlarini o‘z hajmida, texnologik bir xil, har bir ob’ektning xom-ashyosidan kelib chiqib struktura va fakturalarni o‘zgartirmagan holda polibutilmetakrilatni atseton yoki ksiloldagi 5% eritmasi bilan kimyoviy qotirish yo‘li bilan, shuningdek, tonirovka qilib, eski holatini imitatsiya qilgan holda yaratish.

2. Yetkazib beriladigan tovar yangi, ishlatilmagan, va nuqsonlarsiz bo‘lishi kerak.
3. “Yetkazib beruvchi” tovarlarni Buyurtmachi manzilgacha yetkazib berilishi lozim.

4. Kafolat muddati yetkazib berilgan kundan boshlab kamida 3 yil. “Yetkazib beruvchi” kafolat muddati davomida tovarlarga texnik xizmat ko‘rsatishi va jihozda nuqsonlar aniqlangan hollarda uni almashtirib berishi lozim. “Yetkazib beruvchi” har qanday sharoitdan qat’i nazar, texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini ko‘rsatishda hech qanday kechikishlar bo‘lmasligini o‘z zimmasiga oladi va kafolatlaydi.

5. “Yetkazib beruvchi” O‘zbekiston Respublikasi hududida kafolat muddati davomida tovarlarga xizmat ko‘rsatishi lozim.

6. Tovarlarning narxiga belgilangan joyga yetkazib berish, kafolat muddati davomida texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kiritilishi lozim.

7. Tanlash predmetiga o‘xhash tovarlarni yetkazib berish bo‘yicha ilgari amalga oshirilgan ishlar (yetarli malakaga ega ekanligi) to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etish.

8. Tovarlarning qadoqlanishi tashish qoidalariga rioya qilgan holda tashish paytida ularning xavfsizligini kafolatlashi kerak.

9. Tovarlar texnik topshiriqda ko‘rsatilgan barcha talablar va parametrlarga muvofiq bo‘lishi shart.

10. Texnik topshiriq shartlariga muvofiq bo‘lmagan, sifatsiz va nuqsonli tovarlar qabul qilinmaydi. Jihozning nuqsonli ehtiyoj qismlarini almashtirish va uni qo‘shimcha yetkazib berish bilan bog‘liq barcha transport va boshqa xarajatlar yetkazib beruvchi hisobidan amalga oshiriladi.

11. Shikastlangan qadoqdagi tovarlarni yetkazib berish taqiqlanadi.

12. Shartnoma bo‘yicha tovarlarni qabul qilish buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tovarlarning texnik tavsifi

№	Названия товара	Комплектация
1	Tarixiy eksponatlar	Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid qoyatosh suratlarinig fragmentlari, bronza davriga oid sirlanmagan sopol vaza va kuboklar, Kushon davriga oid barelъef rangli loy-ganch haykallar, anob berilgan terrakota haykalchalar, losheniyali eynaxoya ko'za hamda ilk o'rta asrlarga oid shtampovkali terrakota flyaga-mustaxara, islimiy va handasaviy ornamentlar bilan bezatilgan sirkori oshxona idishlarini o'z hajmida, texnologik bir xil, har bir ob'ektning xom-ashyosidan kelib chiqib struktura va fakturalarni o'zgartirmagan holda polibutilmetakrilatni atseton yoki ksiloldagi 5% eritmasi bilan kimyoviy qotirish yo'li bilan, shuningdek, tonirovka qilib, eski holatini imitatsiya qilgan holda yaratish.

III. TANLASH HUJJATLARINING NARXGA OID QISMI

1. Narx taklifini shakllantirish.

1.1. Tanlashning umumiyligi cheklangan miqdori – 195 000 000 (Bir yuz to’qson besh million) so‘m Tanlash predmeti hisoblangan har bir tovarning narxlari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

Nº	Tovar nomi	Soni (to‘plam)	Narx (QQS bilan birga)	Umumiyligi summa
1	Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid qoyatosh suratlarinig fragmentlari, bronza davriga oid sirlanmagan sopol vaza va kuboklar, Kushon davriga oid barelgef rangli loy-ganch haykallar, anob berilgan terrakota haykalchalar, losheniyali eynaxoya ko‘za hamda ilk o’rta asrlarga oid shtampovkali terrakota flyaga-mustaxara, islimiyligi va handasaviy ornamentlar bilan bezatilgan sirkori oshxonasi idishlarini o’z hajmida, texnologik bir xil, har bir ob’ektning xom-ashyosidan kelib chiqib struktura va fakturalarni o’zgartirmagan holda polibutilmetakrilatni atseton yoki ksiloldagi 5% eritmasi bilan kimyoviy qotirish yo’li bilan, shuningdek, tonirovka qilib, eski holatini imitatasiya qilgan holda yaratish.	30	6500000	195 000 000
JAMI				195 000 000

1.2. Ishtirokchi narx taklifiga tovarlarni belgilangan joyga yetkazib berish, kafolat muddati davomida texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari kiritilishi lozim.

1.3. Tanlash ishtirokchisi tomonidan belgilangan narx ishtirokchi tomonidan tovar yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilishiga qadar bo‘lgan davrda o‘zgartirilmaydi. Tanlash komissiyasi narxlarni pasaytirish yuzasidan muzokaralar o‘tkazishni taklif qiladigan holatlar bundan mustasno.

1.4. Har qanday bosqichda narxlarni ko‘tarilish tomonga o‘zgarishini nazarda tutuvchi tanlash taklifi tanlash savdolari talablariga javob bermaydigan deb hisoblanadi va Komissiya tomonidan keyingi ko‘rib chiqish rad etiladi.

2. To‘lov valyutasi va moliyalashtirish manbai

2.1. O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda;

2.2. Tanlash savdolari yakunlari bo‘yicha g‘oliblar bilan imzolangan shartnomaga byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

3. To‘lov shartlari

3.1. Yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomada tovar uchun avvaldan 30 foiz miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi. Qolgan to‘lovlar Yetkazib beruvchi tomonidan shartnomaga ko‘ra majburiyatlar bajarilganidan so‘ng hisob-faktura asosida yakuniy 70 foiz miqdordagi to‘lov amalga oshiriladi.

4. Yetkazib berish muddati

4.1. Ishtirokchi tomonidan tovar yetkazib berish muddati – 5 kun.

IV. SHARTNOMA LOYIHASI

SHARTNOMA

Shartnoma tuzilgan sana

Shartnoma tuzilgan hudud

Bir tomonidan Yetkazib beruvchi korxonaning nomi va shakli korxonasi raxbari Ish bajaruvchi korxona rahbarining F.I.O, keyinchalik « Yetkazib beruvchi » deb nomlanadi va ikkinchi tomonidan Buyurtmachi korxonaning nomi va shakli Buyurtmachi korxona rahbarining F.I.O. kelgusida “Buyurtmachi” deb nomlanadi, o‘rtada ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma mazmuni

- 1.1. “Yetkazib beruvchi” mahsulotni “Buyurtmachi”ga xaqini to‘lagandan so‘ng yetkazib beradi.
- 1.2. “Buyurtmachi” esa o‘z navbatida maxsulotni amaldagi qoidalar bo‘yicha “Yetkazib beruvchi” dan qabul qilib oladi va kerakli xujatlarni “To‘lovni amalga oshiruvchi”ga taqdim qiladi.

II. Shartnomaning umumiyligi va xisob-kitob qilish tartibi

- 2.1. “Yetkazib beruvchi” umumiyligi Shartnoma umumiyligi bo‘lgan quyidagi miqdordagi kislorod maxsuloti bilan yil davomida ta‘minlab borishni o‘z zimmasiga oladi:

№	Tovar nomi	Soni (to‘plam)	Narx (QQS bilan birga)	Umumiyligi summa
1				
2				
JAMI				

- 2.2. “To‘lovni amalga oshiruvchi” “ Yetkazib beruvchi ” tomonidan taqdim etilgan kislorod maxsuloti uchun qonunda belgilangan tartibdagi to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Tomonlarning xuquqlari va majburiyatlar

- 3.1. “ Yetkazib beruvchi ” ning xuquq va majburiyatlar:

Tovar yetkazib berishni “Buyurtmachi” bilan kelishilgan xolda amalga oshiradi.

Maxsulot yetkazib berishni shartnomada belgilangan tartibda va muddatda amalga oshirishni o‘z zimmasiga oladi.

“Buyurtmachi” ning xuquq va majburiyatlar:

“Yetkazib beruvchi”ga olinadigan maxsulot uchun avvaldan to‘lanidigan avans foizi 30% miqdorida avans to‘laydi.

Olingan maxsulotning qolgan pulini bir oylik muddat ichida to‘lab berish kafolatini beradi.

Maxsulotni o‘z vaqtida qabul qilib oladi.

Kislorod maxsulotini maxsus jixozlangan transport vositalarida tashish va xavfsizlik texnikasi qonun-qoidalarini to‘la ta‘minlashni o‘z zimmasiga oladi.

IV. Tomonlarning javobgarligi

- 4.1. Tomonlar ushbu shartnoma bilan o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasalar yoki bajarishni kechiktirsalar, xar bir kun uchun shartnomani umumiyligi qiymatining Penya foizi foizi miqdorida penya (boqimandalik) xamda majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun Majburiyatlarni

bajarmaganlik uchun jarima miqdori % miqdorida jarima to‘laydi, lekin penyaning miqdori shartnomani umumiyligi qiyamatining Penya maksimal foizi (miqdori, shartnomalar summasidan) foizidan ortib ketmasligi shart.

4.2. Mazkur shartnomalar imzolashga tayyorlash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonun talablariga rioya qilishi shart.

V. Fors-major xolatlari

5.1. Shartnomalar muddati davomida fors-major xolatlari, ya’ni favqulodda vaziyat xolatlari, tabiiy ofatlar, jamoa tartibsizliklari va xokazolar yuz bergan xolatlarda shartnomalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini soqit qilinadi.

5.2. Yuzaga kelgan fors-major xolatlari bo‘yicha tomonlar bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari shart.

VI. Nizolarni xal qilish tartibi

6.1. Taraflar o‘rtasida ushbu shartnomalar bo‘yicha yoki u bilan bog‘lik yuzaga kelgan barcha kelishmovchiliklar taraflar o‘rtasida muzokara yo‘li bilan xal qilinadi.

6.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo‘li bilan xal qilib bo‘lmasa, ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Xo‘jalik sudi orqali xal qilinadi.

VII. Shartnomaga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish tartibi

7.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha qo‘srimcha va o‘zgartirishlar fakat ikkala tomondan yozma ravishda imzo qo‘yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo‘ladi.

7.2. Shartnomani taraflar o‘zaro kelishuviga asosan O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolik Kodeksi» va amaldagi qonun xujjatlari me’yorlariga binoan keltirilgan zararni to‘lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

VIII. Qo‘srimcha shartlar

Qo‘srimcha shartlar

IX. Tomonlarning rekvizitlari:

YETKAZIB BERUVCHI

BUYURTMACHI
